

TARBIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI

Toirova Zilola Abdulaziz qizi

Andijon Davlat chet tillari instituti

Fransuz tili ta'lim yo'nalishi

201-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: pedagogika fanlari

bo'yicha falsafa doktori M.N.Sobirova

Tel:+998 (50) 577 17 76.

Annotatsiya: ushbu maqolada har bir jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan eng dolzarb masala tarbiya, uning maqsad va vazifalari, tarbiyaga oid asarlardagi ibratli fikrlar va ularning bugungi kun ta'lim tizimidagi o'rni haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: *tarbiya, ijtimoiy tarbiya, jismoniya tarbiya, fikr tabiyasi, axloq tarbiyasi, yaxshi xulq, nazofat, hilm, sabr*

Аннотация: В данной статье освещается один из самых актуальных вопросов, имеющих важное значение для каждого общества — воспитание, его цели и задачи, поучительные мысли из произведений, посвящённых воспитанию, а также их место в современной системе образования

Ключевые слова: воспитание, социальное воспитание, физическое воспитание, умственное воспитание, нравственное воспитание, хорошее поведение, чистоплотность, кротость, терпение.

Annotation: This article highlights one of the most pressing issues of great importance for every society — education, its goals and objectives, instructive ideas found in works devoted to upbringing, and their role in today's educational system.

Keywords: education, social upbringing, physical education, intellectual education, moral education, good behavior, cleanliness, gentleness, patience.

Ma'lumki, tarbiya har bir jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan eng dolzarb masalalardan biri sifatida insonning ma'naviy rivojlanishida muhim o'rinni egallaydi. Bu jarayon o'z navbatida o'z-o'zini anglash, axloqiy me'yorlarga amal qilish

va ijtimoiy adolatni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Shu bilan birgalikda insonning mustaqil fikr yuritish, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini egallashlari va shu bilan birga, ijtimoiy hayotga moslashishlarida ham muhim o'rin tutadi.

Tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri bolalarga axloqiy qadriyatlarni o'rgatishdir. Bu, yaxshilik va yomonlikni ajratish, o'zaro hurmat va samimiyatni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birgalikda tarbiya jismoniy tarbiya va sportni ham o'z ichiga oladi. Jismoniy rivojlanish sog'lom hayot tarzini shakllantirishga yordam beradi. Jismoniy tarbiya, bolalarning sog'lig'ini saqlash va jismoniy faolliklarini oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Sport va jismoniy mashg'ulotlar orqali bolalar sog'lom hayot tarzini o'rganadilar

Ijtimoiy tarbiya bolalarga ijtimoiy munosabatlarni o'rganish, guruhlarda ishlash va jamiyatda faol ishtirok etish ko'nikmalarini o'rgatadi.

Tarbiya jarayonida bolalar o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishlari kerak. Bu, stressni boshqarish, o'z his-tuyg'ularini ifoda etish va boshqalar bilan munosabatlarda muvozanatni saqlashga yordam beradi.

Zamonaviy dunyoda innovatsion fikrlash va ijodkorlik muhim ahamiyatga ega. Tarbiya jarayonida bolalarga yangi g'oyalarni ishlab chiqish, muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni o'rgatish zarur. Ekologik masalalar zamonaviy jamiyatda muhim o'rin tutadi. Tarbiyada bolalarga tabiatni sevish, uning resurslarini tejash va ekologik mas'uliyatni o'rgatish muhimdir. Bolalarga o'z milliy madaniyatini, an'analarini va urf-odatlarini o'rgatish orqali ular o'zligini anglashlariga yordam berish. Bu, shuningdek, boshqa madaniyatlarni hurmat qilishni ham o'z ichiga oladi.


Ijtimoiy tarbiya butun jamiyatga, xalqqa millat, tabaqaga ko'rsatilgan maqsadga muvofiq tarbiyaviy ta'sirdir. Ijtimoiy tarbiya yordamida fuqarolarning xulq-atvori, xatti-harakati yagona maqsad tomon yo'naltiriladi. Xuddi shuning uchun ham ijtimoiy tarbiya tarbiyaviy ta'sirning yagona dastur asosida amalga oshiriladigan ongli qismidir.

Atoqli adib bobomiz Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq” asaridagi tarbiya masalasiga oid qimmatli fikrlariga to‘xtalib o‘tsak:” *Emdi ochiq ma’lum bo‘ldiki, tarbiyani tug‘ulgan kundan boshlamak, vujudimizi quvvatlandurmak, fikrimizi nurlandurmak, axloqimizi go‘zallandurmak, zehnimizi ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga, «birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinchi, maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur», – deb javob bersak, bir kishi deyurki, «qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paqmoq, qo‘li to‘qmoq onalarmi? O‘zlarida yo‘q tarbiyani qaydan olib berurlar», der . Mana, bu so‘z kishining yuragini ezar, bag‘rini yondurar. Otasiga nima dersiz, desak , qaysi ota? To‘ychi, uloqchi, bazmchi, do‘mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko‘zlari qiymagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval o‘zlarini o‘qitmak, tarbiya qilmak lozimdur», – der. Mana bu so‘zni eshitgach, umid qo‘llari qo‘ltuqg‘a urilur. Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur”.*

Quyidagi fikrlar esa asardagi bobomizning tabiyaga aoid qarashlarini aks ettiradi.

<p>Fikr tarbiyasi</p>	<p><i>Eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratli bo‘lishiga sabab bo‘ladur</i></p>
<p>Axloq tarbiyasi:</p>	<p><i>Insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidur.</i></p>
<p>Yaxshi xulq:</p>	<p><i>Bir qismi o‘z nafsimizga, bir qismini bir-birimizga qarshu ishlatmak uchun kerakli bo‘lgan yaxshi xulqlar: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g‘ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va</i></p>

	<i>zako, hifzi lison, iqtisod, viqor,xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va afvdur.Fatonat aql egasi bo 'luv demakdir.</i>
Nazofat	<i>Deb a'zolarimizni, kiyimlarimizni, asboblarimizni pok va toza tutmoqni aytilur. Poklik zehn va idrokingni keng va o 'tkur qilur.</i>
Sa'y va g'ayrat	<i>Ustiga yuklangan ibodat va xizmatlarni harakat birla ado qilmakni aytilur.</i>
Riyozat	<i>Savob ishlarni qilub, gunoh ishlardan saqlanmoqni aytilur. Riyozat adabning koni, ruhning darmonidur. Insonlarni to 'g'ri yo 'lga solub, egri yo 'ldan qaytarguvchi riyozatdur.</i>
Shijoat	<i>Botir va yurakli bo 'lmakni aytilur. Shaji' kishi hech narsadan qo 'rqmaydurgan botir va yurakli bo 'lur.</i>
Qanoat	<i>Janobi Haq tarafidan ihson bo 'lgan ahvolga yetishdig 'imiz ne 'mat va molga shukr, boshimizga kelgan faqr, musibat, falokatlariga chidab, sabr qilmoqni aytilur. Qanoat hasad, tama, hirs, xorlik kabi illatlarning davosi, nafsimizning g 'inosidur.</i>
Ilm	<i>O 'qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o 'rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g 'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur.</i>
Sabr	<i>Boshimizga kelgan balo va qazolarga chidamli bo 'lmakni aytilur. Har bir ishda sabr va sovuqqonlik ila harakat qilmak lozimdur.</i>

 <p style="text-align: center;">Hilm</p>	<p style="text-align: center;"><i>Bo‘lar-bo‘lmas ishga achchig‘lanmaydurgan, arslon yurakli, yumshoq tabiatli bo‘lmoqni aytilur. Hilm insonlarning tab‘idan xusumat, adovat, g‘azab, hiddat kabi yomon xulqlarni yo‘q qiladurgan har kimcha maqbul bir sifatdur.</i></p>
--	--

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yig‘indisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o‘tadi.

Har bir insonning shaxs sifatida shakllanishi, uning kelajakdagi muvaffaqiyati va jamiyatdagi o‘rni ko‘p jihatdan tarbiyaga bog‘liq. Tarbiya insonning axloqiy, intellektual, jismoniy va estetik jihatdan yetuk bo‘lishini ta’minlaydi. Shu boisdan, tarbiyaning turlari va usullari bolaning rivojlanish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola tarbiyasi insoniyat tarixida eng muhim jarayonlardan biri bo‘lib, har bir avlodni shakllantirish va jamiyat rivojiga xizmat qiladi. Bola dunyoga kelgan ilk kundan boshlab unga atrof-muhit, ota-onalar, pedagoglar va jamiyatning boshqa a‘zolari ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ta’sir tarbiya jarayoni orqali amalga oshirilib, bola ongining rivojlanishi, shaxs sifatida shakllanishi va hayotga tayyorgarlik ko‘rishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya turlari turli jihatlarni qamrab oladi. Jumladan, ma’naviy tarbiya bolaning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, aqliy tarbiya uning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va tafakkur qobiliyatini rivojlantiradi. Jismoniy tarbiya esa bola sog‘lig‘i va jismoniy qobiliyatlarini mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, mehnat tarbiyasi bolani mustaqillikka,

mehnatsevarlikka va hayotda mas'uliyatli bo'lishga o'rgatadi. Estetik tarbiya esa bolaning san'at va go'zallikka bo'lgan didini shakllantirishda katta rol o'ynaydi.

Zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimida bolaga individual yondashuv, innovatsion tarbiya metodlarini qo'llash va uning ijtimoiy moslashuvini oshirish masalalari dolzarb hisoblanadi. Chunki har bir bolaning rivojlanish sur'ati, qiziqishlari va qobiliyatlari har xil bo'lib, tarbiya jarayoni ham mos ravishda olib borilishi lozim.

Ushbu maqolada turli tarbiya turlarining mazmuni va ularning bolaning jismoniy, psixologik hamda ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri batafsil o'rganiladi. Shuningdek, bolani har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash yo'nalishida zamonaviy yondashuvlar va samarali metodlar tahlil qilinadi. Tarbiya jarayonining to'g'ri yo'naltirilishi nafaqat bolaning shaxsiy hayoti, balki jamiyatning kelajagi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytish joizki, tarbiyaning maqsad va vazifalari har bir insonning hayotida muhim rol o'ynaydi. Tarbiya jarayonida o'zaro hurmat, samimiyat va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish orqali biz kelajak avlodni yanada ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk shaxslar sifatida tarbiyalaymiz. Tarbiyaning barcha jihatlari bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ularni to'liq amalga oshirish orqali jamiyatimizni rivojlantirishga hissa qo'shamiz.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Abdurahmonov, M. Tarbiyaning nazariy asoslari. Tashkent: O'qituvchi.2020.
2. Karimov, I. Yoshlar tarbiyasi. Tashkent: Fan va texnologiya.2019.
3. Qodirov, A. Ta'lim va tarbiya. Tashkent: O'zbekiston.2021.
4. Xudoyberdiyev, S. Ma'naviy tarbiya. Tashkent: Ma'naviyat.2022.
5. uz.wikipedia.org.
6. Jadid.uz.